

MILLIY VA XALQARO AN‘ANAVIY TABOBAT USULLARI

Ashurova Sabrina Mansurjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti, tibbiyot fakulteti, davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada an‘anaviy tabobat nomoddiy madaniy meros sifatida muhim o‘rin tutishi, uning milliy va xalqaro ahamiyati hamda zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimidagi qo‘llanish imkoniyatlari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasidagi faoliyati tahlil qilinib, o‘ziga xos natijalar va amaliy tajribalar yoritilgan. Shuningdek, maqolada boshqa davlatlarning an‘anaviy tabobatni asrab-avaylash va zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalari taqdim etilgan. Ushbu ish an‘anaviy tabobatning boy merosini zamonaviy tibbiyot bilan uyg‘unlashtirishda muhim ilmiy-amaliy takliflarni o‘rtaga tashlaydi va nomoddiy merosning kelgusi avlodlarga yetkazilishidagi dolzarb masalalarni yoritadi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается важность традиционной медицины как нематериального культурного наследия, её национальное и международное значение, а также возможности её применения в современных системах здравоохранения с научно-литературной точки зрения. Анализируется деятельность ЮНЕСКО и других международных организаций по сохранению нематериального культурного наследия, освещены уникальные результаты и практический опыт. В статье также представлены передовые примеры других стран в вопросах сохранения традиционной медицины и её адаптации к требованиям современности. Данная работа предлагает важные научно-практические предложения по интеграции богатого наследия традиционной медицины с современной медициной и раскрывает актуальные вопросы передачи нематериального наследия будущим поколениям.*

Abstract: *This article explores the significance of traditional medicine as intangible cultural heritage, emphasizing its national and international value as well as its potential applications within modern healthcare systems from a scientific and literary perspective. The activities of UNESCO and other international organizations dedicated to the preservation of intangible cultural heritage are analyzed, highlighting unique results and practical experiences. The article also presents advanced examples from other countries in preserving traditional medicine and adapting it to contemporary needs. This study offers critical scientific and practical recommendations for integrating the rich heritage of traditional medicine with modern medicine and addresses pressing issues related to the transmission of intangible heritage to future generations.*

Kalit so‘zlar: *akupunktura, an‘anaviy tabobat, Biozoula, fitoterapiya, farmakopeya, integratsiya, Khumalo, nomoddiy meros, Nsindane, raqamlashtirish, standartlashtirish, kombinatorik kimyo, xalqaro ekspert.*

Ключевые слова: *акупунктура, ан’анавидная медицина, Biozoula, фитотерапия, фармакопоя, интеграция, Khumalo, нематериальное наследие, Nsindane, цифровизация, стандартизация, комбинационная химия, международный эксперт*

Keywords: *acupuncture, traditional medicine, Biozoula, phytotherapy, pharmacopoeia, integration, Khumalo, intangible heritage, Nsindane, digitization, standardization, combinatorial chemistry, international expert.*

ASOSIY QISM

Nomoddiy madaniy meros, insoniyatning ma'naviy boyligi va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Urbanizatsiya, globallashuv va zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan madaniy xilma-xillik yo'qolib bormoqda. Nomoddiy madaniy meros madaniy xilma-xillikning o'ziga xos ko'rinishi, barqaror rivojlanishning muhim kafolati hamda mamlakat yoki xalqning bunyodkorligi va xalqaro hamjamiyatlarda har tomonlama raqobatdoshligini hal qiluvchi omilidir. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish XXI asrdan boshlab butun dunyo muammosiga aylandi. YuNESKO jahon nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. 2003-yil YuNESKO konvensiyasi nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning to'liq tizimini bosqichma bosqich shakllantirdi. Nomoddiy madaniy merosni ro'yhatga olish, merosxo'rlik, ta'lim, xalqaro hamkorlik va yordam orqali uning tobora yetuk mukammal bo'lishiga yordam berdi. Boy va rang-barang nomoddiy madaniy meros an'anaviy tabobat boshqa xalqlar singari o'zbek madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek xalqining o'ziga xos ma'naviy qadriyatlari va madaniy hayotining tarixiy davomiyligini tushunishni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. 170 mamlakat an'anaviy tabobatdan foydalanishi to'g'risida ma'lumot bergan. 113 mamlakatda esa eng keng tarqalgan amaliyot shaklidir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ham an'anaviy tabobatni tan olish va sog'liqni saqlash tizimlariga integratsiyalashni boshlagan. Ma'lumotlarga qaraganda ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi an'anaviy tabobatning turli shakllaridan muntazam foydalanmoqda (AQSh, 42%; Avstraliya, 48%; Fransiya, 49%; Kanada, 70%). Jahon sog'liqni saqlash saqlash tashkilotining 194 a'zo davlatidan 170 tasi o'simlik preparatlari, akupunktur, yoga, mahaliy davolash usullari va an'anaviy tabobatning boshqa shakllaridan foydalanishi haqida hisobot bergan. Bugungi kunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'zining an'anaviy, qo'shimcha va integratsion tibbiyot bo'limi orqali an'anaviy tabobatning turli tizimlarini o'qitish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, kasalliklarning xalqaro tasnifiga (ICD) dalillariga asoslangan integratsiyalashuvi uchun standartlar va mezonlarni ishlab chiqish uchun mamlakatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Jahon mamlakatlari singari O'zbekistonda ham an'anaviy tabobatga berilayotgan e'tibor uni saqlashga intilish bejizga emas. An'anaviy tabobat faqatgina tabobat usullari yoki dori-darmonlaridan iborat bo'libgina qolmay, balki madaniyat, an'ana, urf-odatlar va bilim singari boy nomoddiy meroslarning biridir. An'anaviy tabobat, avloddan-avlodga o'tgan sari tajribalar va bilimlarni saqlaydi, bu esa xalqning o'ziga xosligini va madaniy xilma-xilligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va ekologik muvozanatni ta'minlaydi. Bu, ayniqsa,

zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal qilishda muhimdir. An’anaviy tabobat bilan bog‘liq nomoddiy madaniy merosni geografik taqsimoti, saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish borasida hali ham kam tadqiqodlar bor. Tadqiqod hududlari asosan viloyat, shahar, tuman va madaniy ekologik muhofaza zonalarida darajasida bo‘lib, milliy miqyosda an’anaviy tabobatning nomoddiy madaniy merosining tadqiqodlari kam va talab darajasida emas. O‘tgan 50 yil ichida yuqori samarali skrining usullari va kombinatorik kimyo yordamida ishlab chiqilgan yangi dori-darmonlarning katta xilma-xilligi mavjud edi. Ammo, tabiiy mahsulotlar va ularning hosila birikmalari farmakopeyalarda juda muhim komponentlar bo‘lib qolmoqda. Hisoblangan 250000-500000 mavjud o‘simlik turlarining faqat kichik bir qismi bioaktivlik uchun ilmiy tadqiq qilingan. Khumalo va Nsindane (2018) fikriga ko‘ra, “An’anaviy tabobat bilimlari egalari o‘z bilimlarini bir vaqtlar ushbu bilimga ega bo‘lgan ota-onalari va qarindoshlari kabi insonlardan olganlar. Shuning uchun bu bilim faqat tanlangan shaxs bilan chegaralangan va u tomonidan yashirincha saqlangan, bilimlar faqat tor doirada tarqalgan”. Bu shuni anglatadiki Janubiy Afrikada bu bilim egalari vafot etganda juda ko‘p bilimlar yo‘qolishi kuzatilgan. Bu sog‘liqni saqlash tizimining bir qismi bo‘lgan an’anaviy tabobatning avloddan-avlodga o‘tishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Biroq, bu bilimlarni saqlab qolish chora tadbirlarini tadbiiq etishni kuchaytirdi. An’anaviy tabobatni turli shakllarini saqlab qolish uchun dunyoning turli burchaklarida turli tashabbuslar ishlab chiqilgan. Shu sababli, an’anaviy tabobatni tadqiqodlarini, nafaqat, uni nomoddiy meros sifatida saqlab, kelajak avlodga yetkazish maqsadida mamlakatlarda muvafaqqiyatli qo‘llanilgan usullardan o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy tabobat O‘zbekistonning boy madaniy merosini ifodalaydigan va qariyb ming yillik tarixga ega bo‘lgan sohalardir. An’anaviy tabobat, xalq tabobati va fitoterapiya kabi usullarni o‘z ichiga olib, kasalliklarni davolashda va sog‘liqni saqlashda katta ahamiyatga ega. U o‘simliklar, minerallar va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta’minlaydi. An’anaviy tabobatni nomoddiy meros sifatida yosh avlodga yetkazish, ta’lim dasturlariga kiritish va zamonaviy tadqiqotlar orqali ularning samaradorligini isbotlash, bu sohalarni yanada rivojlantirish va global miqyosda tanitish imkonini beradi.

An’anaviy tabobat va tabiatshunoslikning madaniy meros sifatida saqlanishiga ko‘mak beruvchi ilmiy-amaliy va nazariy takliflar:

Mahaliy va xalqaro darajada an’anaviy tabobat saqlangan va rivojlantirilgan muvafaqqiyatli tajribalarni o‘rganishimiz kerak. Masalan, Hindistonning “The Honey BEE Network - asal ari tarmog‘i” loyihasi 1986-yilda tuzilgan bo‘lib, ma’lumotlar dala ishchilari deb nomlanuvchi jamoa a’zolari tomonidan to‘planadi. Ushbu loyiha akademiklar, talabalar, fermerlar va boshqa insonlar orasida oson ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi. Ushbu loyiha 10000 dan ortiq an’anaviy tabobatga oid bilimlarni o‘zida to‘plagan. Yana bir shunday loyihalardan biri “The Biozulua”. Biozulua – dorivor o‘simliklar haqidagi ma’lumotlarni to‘playdigan ma’lumotlar bazasi. Bu Janubiy Amerikaning shimoliy sohilidagi Venesuela loyihasi bo‘lib, u turli etnik guruhlariga tegishli bo‘lgan oziq-ovqat, dorivor o‘simliklar va hayvonlar haqidagi ma’lumotlarni olishga qaratilgan.

An’anaviy tabobat bo’yicha bilimlarni hujjatlashtirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ko’rsatish, masalan, dorivor o’simliklar bazasini yaratish yoki tarixiy an’anaviy tibbiyot kitoblarini raqamli arxivlash. Bu jarayonga tadqiqodchilar va IT mutaxassislarini jalb qilish orqali kelajak avlod uchun qulay qidiruv imkoniyatiga ega platformalar yaratilishi mumkin.

An’anaviy tabobat va tabiatshunoslikni nomoddiy meros sifatida saqlab, keng jamoatchilikka tanitish va rivojlantirish uchun amaliy takliflar:

Mahaliy va xalqaro darajadagi muvofaqqiyatli tajribalarni ko’rgazma va seminarlarda taqdim etish. Masalan, O’zbekistondagi xalq tabobati amaliyotlarini mahalliy mutaxassislar va xalqaro ekspertlar bilan birga muhokama qilib, ularning klinik amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatlarini o’rganish;

Maktablar va universitetlarda yoshlarga an’anaviy tabobat va tabiatshunoslikka qiziqishni oshirish uchun maxsus trening va kurslar tashkil etish. Masalan, dorivor o’simliklarni aniqlab, ulardan foydalanish bo’yicha amaliy mashg’ulotlar, ekologik tajriba maydonlarini yaratish;

Sog’liqni saqlash markazlari va jamoat tashkilotlarida ekologik va an’anaviy tabobat usullarini targ’ib qilish. Bu sog’lom ovqatlanish, tabiiy muhit bilan aloqani mustahkamlash va tabiatning shifobaxsh resurslaridan foydalanishni o’z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada milliy va xalqaro tabobat usullarining nomoddiy madaniy meros sifatida ahamiyatli tahlil qilindi. Zamonaviy tibbiyotda bu usullarning qo’llanilishi inson salomatligini saqlash va sog’lom turmush tarzini targ’ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish, tabobat usullarini saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishda raqamli texnologiyalarning rolini oshirish lozim. Mazkur maqola orqali tabobatning madaniy meros sifatida qadriyatlarini targ’ib etish imkoniyatlari yuzasidan amaliy va nazariy takliflar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurov, A. "An’anaviy tabobatda tabiiy vositalarning ahamiyati." Toshkent, 2019.
2. Oqilov, S. "Sharq tabobati: madaniy va ilmiy meros." Samarqand, 2021.
3. Ibn Sino. "Tib qonunlari." Toshkent: Yangi asr avlodi, 1989.
4. Karimov, H. "O‘zbek xalq tabobati: tarix va taraqqiyot." Toshkent, 2020.
5. Qurbonov, A. "An’anaviy tabobatda o‘simliklarning shifobaxshligi." Toshkent, 2022.
6. Azizov, M. "Tabiat va inson: an’anaviy tabobatning madaniy ahamiyati." Farg‘ona, 2021.
7. UNESCO. "Traditional Medicine as Cultural Heritage: Perspectives and Practices." Paris, 2015.
8. World Health Organization (WHO). "WHO Global Report on Traditional and Complementary Medicine 2019." Geneva, 2019.

9. Mandal, M. & Mandal, S. "Traditional herbal remedies: a critical evaluation." Asian Pacific Journal of Tropical Biomedicine, 2011.